



Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 978,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **12,9** %ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 701,5** mlrd so'mni (**168,9** %ga oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 276,7** mlrd so'mni (**4,7** %ga oshgan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 428,2** mlrd so'mni (**2,1** %ga oshgan) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 978,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **112,9** %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmining barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **81,0** % va yirik korxonalar hissasiga **19,0** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **38,2** % ko'rsatkich bilan **3 426,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,8** % ulush bilan **160,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2022- yil yanvar-sentabr	81,0
2021- yil yanvar-sentabr	44,6

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **7 276,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,7** %ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **81,0** %ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,9 %), Gurlan (99,4 %), Yangiariq (99,2 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi 12,9 foizga oshib, yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida – 125,1 %, Qo'shko'pir tumanida – 116,2 %, Gurlan tumanida– 109,3 %ni tashkil qildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	8 978 201,7	112,9	1 701 490,5	168,9	7 276 711,2	104,7
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	3 426 949,9	125,1	1 527 713,1	189,3	1 899 236,8	98,3
Xiva	305 724,9	107,0	18 904,8	104,5	286 820,0	107,2
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	471 057,1	107,4	3 908,5	109,0	467 148,6	107,4
Gurlan	709 365,0	109,3	4 453,6	21,0	704 911,4	112,3
Qo'shko'pir	356 412,3	116,2	15 362,8	92,4	341 049,5	117,6
Urganch	848 333,4	102,8	27 065,2	53,8	821 268,2	106,0
Hazorasp	890 072,7	107,5	43 192,1	95,6	846 880,6	108,2
Tuproqqal'a	160 437,5	108,3	230,6	65,8	160 206,9	108,4
Xonqa	532 175,9	101,9	30 286,0	152,3	501 889,9	99,9
Xiva	217 979,3	107,8	3 199,4	78,8	214 779,9	108,4
Shovot	542 323,4	108,0	14 996,3	173,6	527 327,1	106,8
Yangiariq	325 457,6	101,4	2 711,6	135,0	322 746,0	101,2
Yangibozor	191 912,9	102,8	9 466,5	89,9	182 446,4	103,6



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **68,9 %**ga oshdi va **1 701,5** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 276,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,7 %**ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,0 %**ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,9 %), Gurlan (99,4 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 19,0 %ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (44,6 %), Xiva shahri (6,2 %) va Xonqa tumanida (5,7 %) kuzatildi.





**XORAZM VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**


2022- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi o‘rtacha **4 638,5** ming so‘mni (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,0** %ga oshgan) tashkil qildi. Yuqori o‘shish sur‘ati Urganch shahri (123,1%), Qo‘shko‘pir (114,5 %) va Gurlan (107,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko‘rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (23 170,7 ming so‘m), Gurlan (4 642,4 ming so‘m) va Hazorasp (4 452,6 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




	Hajm, ming so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	4 638,5	111,0
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	23 170,7	123,1
Xiva	3 191,3	105,1
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	2 761,2	105,5
Gurlan	4 642,4	107,5
Qo‘shko‘pir	2 013,6	114,5
Urganch	4 102,2	100,8
Hazorasp	4 452,6	106,2
Tuproqqal‘a	2 814,7	105,1
Xonqa	2 761,7	100,2
Xiva	1 449,3	106,2
Shovot	3 093,7	106,3
Yangiariq	2 723,5	100,0
Yangibozor	2 134,7	101,2

Asosiy tarkib, foizda




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 428,2** mlrd soʻmni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2,1** % ga oʻsdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʻjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **665,8** mlrd soʻmni (oʻzgarish surʼati 92,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **762,4** mlrd soʻmni (oʻzgarish surʼati 112,9 %) tashkil etdi.


Oʻsish (oʻzgarish) surʼatlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 665,8 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 762,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1428,2	102,1	665,8	92,0	762,4	112,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	253,9	81,8	151,6	65,9	102,3	126,9
Xiva	41,9	136,8	38,4	125,5	3,5	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	211,9	106,8	42,4	114,3	169,5	105,1
Gurlan	201,2	140,6	60,7	144,3	140,5	139,1
Qo'shko'pir	145,5	150,2	96,7	140,5	48,9	174,2
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	157,6	110,6	89,7	131,8	67,8	91,2
Tuproqqal'a	12,6	43,6	6,6	26,4	6,0	154,7
Xonqa	98,6	74,1	72,7	72,5	25,9	78,8
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	236,0	103,4	69,3	99,4	166,7	105,1
Yangiariq	37,1	82,9	18,9	72,9	18,2	96,7
Yangibozor	32,0	76,8	18,9	72,4	13,1	84,2

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



7,9
mlrd so'm

Tuzlamalar



306,0
mlrd so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



31,0
mlrd so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)**

99,2
mlrd so'm



**Non va non
mahsulotlari**



16,1
mlrd so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

14,9
mlrd so'm



Tuxum

105,7
mlrd so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

33,2
mlrd so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

5,6
mlrd so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **665,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**306,0** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

12,7
mlrd so'm



Ziravorlar

33,6
mlrd so'm



Tovuq go'shti


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **762,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **689,3** mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi **66,7** mlrd so'mni, parrandalar savdosi **6,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %**ni tashkil etib, **148,6** mlrd so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **16,5 %**ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	148598,0	116,5	5210,2	7,8 m.	143387,8	113,0
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	71255,6	114,3	5210,2		66045,4	106,0
Xiva	5326,9	117,9			5326,9	117,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	5571,5	117,2			5571,5	117,2
Gurlan	4362,7	129,7			4362,7	129,7
Qo‘shko‘pir	2121,8	109,8			2121,8	109,8
Urganch	23281,6	105,4			23281,6	108,6
Hazorasp	8176,3	125,5			8176,3	125,5
Tuproqqal‘a	2695,1	116,9			2695,1	116,9
Xonqa	3676,3	113,9			3676,3	113,9
Xiva	4227,6	132,9			4227,6	132,9
Shovot	12194,8	137,9			12194,8	137,9
Yangiariq	3024,3	129,1			3024,3	129,1
Yangibozor	2683,5	122,2			2683,5	122,2

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 571,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,8** %ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **634,6** mlrd so'mni (**2,7** %ga ko'paydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 937,1** mlrd so'mni (**13,9** %ga ko'payish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

3 571,7 mlrd so'm, 100 %


Yirik korxonalar

634,6 mlrd so'm, 17,8 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

2 937,1 mlrd so'm, 82,2 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiariq tumani (127,1 m.), Hazorasp tumani (28,9 m.) va Xonqa tumani (139,5%) qayd etildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o‘zgarish sur‘ati Yangiariq tumani (2,0 m.), Qo‘shko‘pir tumani (182,7) , Xiva shahri (146,1%) va Hazorasp tumanida (139,3%) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	3 571 666,9	111,8	634 587,7	102,7	2 937 079,2	113,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 716 392,1	105,6	156 013,1	87,5	1 560 379,0	107,9
Xiva	137 407,8	146,1	465,6	62,3	136 942,2	146,8
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	93 104,7	139,2	56 399,3	137,1	36 705,4	142,6
Gurlan	188 196,8	135,0	99 702,2	124,8	88 494,7	148,7
Qo‘shko‘pir	28 998,8	182,7	11,5	114,1	28 987,3	182,7
Urganch	648 426,3	102,6	184 975,1	74,0	463 451,2	121,3
Hazorasp	68 417,7	139,3	13 027,5	28,9 m.	55 390,1	113,8
Tuproqqal‘a	39 373,4	130,1	24,7	83,2	39 348,6	130,2
Xonqa	203 348,0	121,9	88 540,1	139,5	114 807,9	111,1
Xiva	233 233,4	114,6	10,2	3,8	233 223,1	114,8
Shovot	59 510,9	113,4	27,0	50,3	59 483,9	113,4
Yangiariq	95 349,8	2,0 m.	34 066,5	127,1 m.	61 283,4	132,4
Yangibozor	59 907,2	112,5	1 324,8	102,1	58 582,4	112,8

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **2 937,1** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,9** %ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **82,2** %ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shko'pir, Xiva va Shovot tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (39,4 %) va Gurlan tumaniga (47,0 %) to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: (62) 224-65-09